



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№7(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 50 sahifa,
1-iyul, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning milliy qadriyatlarga oid tasavvurlarini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	10
Davlatnazarova Ziyodabonu Muxtor qizi	
Talabalarning xulqidagi deviatsiya darajasining yuqorilab ketishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar.....	16
Ergashev Jo'rabek Xalilovich	
Zo'ravonlikka uchragan bolalarni va ularning oilalarini zo'ravonlikdan himoya qilishning normativ-huquqiy va ijtimoiy-psixologik asoslari.....	19
Ergasheva Gullolaxon Nosirjon qizi	
Tinglab tushunish kompetensiyasining psixolingvistik va pedagogik asoslari.....	24
Jonbo'tayeva Maxarramxon	
O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasining kasbiy kompetentlik tizimidagi o'rni.....	27
Kutliyeva Feruzaxon Yusupovna	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvini ta'minlashga xizmat qiluvchi zamonaviy kompleksni rivojlantirish.....	31
Yunusov Mirsaid Xudayarovich, Istamova Sevdo Ashirqul qizi	
Elektr tizimlari dinamik barqarorligini STEAM va Spiral (Regressus, Progressus) metodlari asosida o'qitish.....	35
Safarov Xoliyor Sayyid Safar o'g'li	
O'quvchilarda badiiy-estetik did va dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi.....	39
Norbutayeva Dilafruz Abdurasulovna	
Talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....	43
Rahimova Nazokatxon Kasimjonovna	



O'Z-O'ZINI RIVOJLANTIRISH KOMPETENSIYASINING KASBIY KOMPETENTLIK TIZIMIDAGI O'RNI

Kutliyeva Feruzaxon Yusupovna

Urganch innovatsion universiteti,
 "Boshlang'ich ta'lim va psixologiya" kafedrası o'qituvchisi,
 UrDU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasining kasbiy kompetentlik tizimidagi o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasining mazmun-mohiyati, tarkibiy komponentlari hamda mutaxassisning kasbiy faoliyatidagi ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, ushbu kompetensiyaning kasbiy kompetentlikning boshqa tarkibiy qismlari bilan o'zaro bog'liqligi tahlil qilinib, uni shakllantirish va rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari asoslab berilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi zamonaviy mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi va raqobatbardoshligini ta'minlovchi muhim omillardan biri ekanligi aniqlangan.

Kalit so'zlar: o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi, kasbiy kompetentlik, kompetensiyaviy yondashuv, uzluksiz ta'lim, mustaqil ta'lim, refleksiya, kasbiy rivojlanish, pedagogik kompetensiya.

Abstract: This article analyzes the role and significance of self-development competence within the system of professional competence. The essence, content, and structural components of self-development competence, as well as its importance in professional activity, are examined from a theoretical perspective. Furthermore, the relationship between self-development competence and other components of professional competence is discussed, and pedagogical opportunities for its formation and development are substantiated. The research findings indicate that self-development competence is one of the key factors ensuring the professional readiness and competitiveness of a modern specialist.

Key words: self-development competence, professional competence, competency-based approach, lifelong learning, independent learning, reflection, professional development, pedagogical competence.

Аннотация: В данной статье проанализированы место и значение компетенции саморазвития в системе профессиональной компетентности. Раскрыты сущность, содержание и структурные компоненты компетенции саморазвития, а также ее роль в профессиональной деятельности специалиста. Кроме того, рассмотрена взаимосвязь данной компетенции с другими компонентами профессиональной компетентности и обоснованы педагогические возможности ее формирования и развития. Результаты исследования показывают, что компетенция саморазвития является одним из важнейших факторов, обеспечивающих профессиональную подготовленность и конкурентоспособность современного специалиста.

Ключевые слова: компетенция саморазвития, профессиональная компетентность, компетентностный подход, непрерывное образование, самостоятельное обучение, рефлексия, профессиональное развитие, педагогическая компетенция.

KIRISH

Bugungi globallashuv va axborotlashuv jarayonlari sharoitida jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sifatli ta'lim tizimini shakllantirish hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalasi hisoblanadi. Zamonaviy mehnat bozori mutaxassislardan nafaqat chuqur kasbiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishni, balki o'z faoliyatini muntazam ravishda takomillashtirib borish, yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtirish, o'zgaruvchan sharoitlarga moslasha olish va shaxsiy rivojlanish strategiyasini samarali tashkil etish qobiliyatini ham talab etmoqda. Shu jihatdan qaraganda, o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi zamonaviy mutaxassisning kasbiy kompetentlik tizimida alohida ahamiyat kasb etuvchi muhim tarkibiy qism sifatida namoyon bo'ladi.

So'nggi yillarda ta'lim sohasida kompetensiyaviy yondashuvning keng qo'llanilishi natijasida shaxsning kasbiy faoliyatdagi muvaffaqiyatini belgilovchi omillarni aniqlash va rivojlantirish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Kompetensiyaviy yondashuvning asosiy maqsadi ta'lim oluvchilarda muayyan kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlarni shakllantirishdan

iboratdir. Mazkur yondashuv doirasida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi mutaxassisning mustaqil ta'lim olish, o'z faoliyatini tahlil qilish, kasbiy kamchiliklarini aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan faoliyatini ifodalovchi muhim kompetensiya sifatida e'tirof etiladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari ham shaxsning uzluksiz rivojlanishiga alohida urg'u bermoqda. Xususan, oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, xalqaro standartlar asosida mutaxassislar tayyorlash, ta'lim sifatini oshirish hamda innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarda talabalarning mustaqil fikrlashi, o'z ustida ishlashi va kasbiy rivojlanishga intilish ko'nikmalarini shakllantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Bunday yondashuv ta'lim jarayonida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirish va takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslarini chuqur tadqiq etish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kasbiy kompetentlik va uning tarkibiy komponentlari masalasi ko'plab xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, kompetensiya va kompetentlik tushunchalarining mohiyati, kasbiy tayyorgarlik tizimida ularning o'rni, mutaxassis shaxsining kasbiy rivojlanish omillari hamda uzluksiz ta'lim jarayonidagi ahamiyati bo'yicha qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Biroq o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasining kasbiy kompetentlik tizimidagi o'rni, uning tarkibiy tuzilmasi, funksional vazifalari va kasbiy faoliyat samaradorligiga ta'siri masalalari hali ham dolzarb ilmiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Kasbiy kompetentlik tizimi murakkab va ko'p komponentli tuzilma hisoblanib, u kasbiy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, kommunikativ qobiliyatlar, axborot bilan ishlash madaniyati, ijtimoiy mas'uliyat hamda shaxsiy rivojlanish omillarini qamrab oladi. Mazkur tizimda o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi integrativ xarakterga ega bo'lib, boshqa kompetensiyalarning shakllanishi va takomillashuviga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Chunki mutaxassisning yangi bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyoji va qobiliyati uning kasbiy faoliyatini doimiy ravishda yangilab borishga xizmat qiladi. Natijada kasbiy kompetentlikning barqaror rivojlanishi va zamonaviy talablar darajasida shakllanishi ta'minlanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi natijasida kasbiy kompetentlik va uning tarkibiy komponentlarini ilmiy jihatdan tadqiq etishga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada ortdi. Xususan, mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi, kasbiy kompetentligini shakllantirish, mustaqil ta'lim olish va o'z-o'zini rivojlantirish masalalari mahalliy pedagog olimlarning ilmiy izlanishlarida muhim o'rin egallaydi. Ushbu tadqiqotlar o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasining nazariy asoslarini aniqlash hamda uning kasbiy kompetentlik tizimidagi o'rnini belgilashda muhim metodologik manba vazifasini bajaradi.

O'zbekistonlik pedagog olimlardan N.A. Muslimov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kasbiy kompetentlik tushunchasining mazmun-mohiyati, uning tarkibiy tuzilishi hamda bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash masalalari keng yoritilgan. Olimning ta'kidlashicha, kasbiy kompetentlik faqat kasbiy bilimlar yig'indisidan iborat bo'lmay, balki mutaxassisning mustaqil fikrlash, muammolarni hal etish, yangiliklarni o'zlashtirish va o'z ustida ishlash qobiliyatlarini ham qamrab oladi. Shu jihatdan o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi kasbiy kompetentlikning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi.

Pedagogika sohasidagi taniqli olimlardan U.N. Nishonaliyev, N. Saidahmedov va B.X. Xodjayevlarning ilmiy ishlari ham kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur olimlar ta'lim jarayonida talabaning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish, ijodiy fikrlashini rivojlantirish hamda o'zini o'zi boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratganlar. Ularning fikricha, zamonaviy ta'limning asosiy vazifalaridan biri ta'lim oluvchilarda uzluksiz ta'lim olish ehtiyojini shakllantirish va o'z-o'zini rivojlantirishga tayyorlikni ta'minlashdan iborat.

R.H. Jo'rayev va S.T. Turg'unov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ta'lim menejmenti va pedagogik jarayonlarni boshqarish masalalari bilan bir qatorda, pedagog shaxsining kasbiy rivojlanishi ham tahlil qilingan. Tadqiqotchilar kasbiy rivojlanishning muhim omillaridan biri sifatida mutaxassisning o'z faoliyatini muntazam tahlil qilishi, mavjud kamchiliklarni aniqlashi va ularni bartaraf etishga intilishini ko'rsatadilar. Bu esa o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasining amaliy mazmunini belgilovchi asosiy jihatlardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, R.A. Mavlonova, O. Hasanboyeva, K. To'rayeva va boshqa olimlarning pedagogik faoliyatga oid tadqiqotlarida shaxsning mustaqil bilim olishga tayyorligi, o'z imkoniyatlarini baholashi va kasbiy rivojlanishga bo'lgan ehtiyoji pedagogik kompetentlikning muhim ko'rsatkichlari sifatida e'tirof etilgan. Ushbu yondashuvlar o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasining nafaqat kasbiy faoliyat samaradorligini oshirish, balki shaxsning intellektual va ma'naviy kamolotini ta'minlashdagi ahamiyatini ham ko'rsatadi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasining kasbiy kompetentlik tizimidagi o'rni va ahamiyatini aniqlashga qaratilgan ilmiy-pedagogik yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida kompetensiyaviy yondashuv, tizimli yondashuv hamda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyalari metodologik asos sifatida qabul qilindi. Ushbu yondashuvlar o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasining mazmun-mohiyatini, uning tarkibiy qismlarini va kasbiy kompetentlik tizimi bilan o'zaro bog'liqligini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqotning nazariy asosini pedagogika, kasbiy ta'lim va kompetensiyaviy yondashuvga oid mahalliy hamda xorijiy ilmiy adabiyotlar tashkil etdi. Tadqiqot davomida ilmiy manbalarni o'rganish va tahlil qilish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tizimlashtirish hamda mantiqiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Xususan, kompetensiya, kompetentlik, kasbiy kompetentlik va o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi tushunchalariga oid ilmiy qarashlar qiyosiy jihatdan o'rganildi va ularning umumiy hamda o'ziga xos xususiyatlari aniqlashtirildi ^[6].

Shuningdek, tadqiqot jarayonida kasbiy kompetentlikning tarkibiy komponentlari tahlil qilinib, o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasining mazkur tizimdagi funksional o'rni belgilandi. Bunda refleksiya, mustaqil ta'lim, o'zini baholash, o'z faoliyatini rejalashtirish va uzluksiz kasbiy rivojlanish kabi mezonlar asos qilib olindi ^[7]. Tadqiqot natijalari nazariy manbalarni umumlashtirish va ilmiy xulosalar chiqarish orqali shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi zamonaviy mutaxassis kasbiy kompetentligining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. U nafaqat yangi bilim va ko'nikmalarni egallashga xizmat qiladi, balki shaxsning kasbiy faoliyatdagi raqobatbardoshligini ta'minlovchi omil sifatida ham namoyon bo'ladi. Zamonaviy mehnat bozori sharoitida mutaxassisning muvaffaqiyati ko'p jihatdan uning mustaqil o'rganish, yangiliklarni tez o'zlashtirish va o'z faoliyatini takomillashtirib borish qobiliyatiga bog'liqdir ^[3].

Tahlillar natijasida kasbiy kompetentlik tizimi quyidagi asosiy komponentlardan tashkil topishi aniqlandi:

- kasbiy bilim va ko'nikmalar;
- kommunikativ kompetensiya;
- axborot-kommunikatsion kompetensiya;
- ijtimoiy-faol kompetensiya;
- o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi.

Mazkur komponentlar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ularning samarali faoliyati kasbiy kompetentlikning yuqori darajada shakllanishini ta'minlaydi. Tadqiqot davomida aynan o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi boshqa kompetensiyalarning rivojlanishiga turtki beruvchi integrativ omil ekanligi aniqlandi. Chunki mutaxassisning o'z ustida ishlashga bo'lgan ehtiyoji va qobiliyati mavjud bilimlarni yangilash hamda yangi tajribalarni o'zlashtirishga xizmat qiladi ^[4].

O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasining tarkibiy tuzilmasini tahlil qilish natijasida uning quyidagi elementlardan iborat ekanligi aniqlandi:

1. **Motivatsion komponent** - shaxsning kasbiy va shaxsiy rivojlanishga bo'lgan ehtiyoji hamda qiziqishi.
2. **Kognitiv komponent** - yangi bilimlarni izlash, o'rganish va amaliyotga tatbiq etish qobiliyati.
3. **Refleksiv komponent** - o'z faoliyatini tahlil qilish va baholash ko'nikmasi.
4. **Faoliyat komponenti** - o'z oldiga maqsad qo'yish, rejalashtirish va rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish qobiliyati ^[5].

Mazkur komponentlarning uyg'unligi shaxsning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlaydi. Ayniqsa, refleksiv komponent mutaxassisning o'z kuchli va zaif tomonlarini aniqlashi hamda kasbiy faoliyatini takomillashtirish yo'llarini belgilashida muhim ahamiyat kasb etadi.

Muhokamalar natijasida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi kasbiy kompetentlik tizimida uchta muhim funksiyani bajarishi aniqlandi. Birinchidan, u mutaxassisning uzluksiz ta'lim olishga tayyorligini ta'minlaydi. Ikkinchidan, kasbiy faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Uchinchidan, shaxsning innovatsion faoliyatga moslashuvchanligini kuchaytiradi. Mazkur funksiyalar zamonaviy ta'lim tizimi va mehnat bozori talablariga to'liq mos keladi ^[6].

Oliy ta'lim muassasalarida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirishda mustaqil ta'lim topshiriqlari, loyiha faoliyati, muammoli ta'lim, elektron ta'lim platformalari va refleksiv tahlil usullaridan foydalanish yuqori samaradorlikka ega ekanligi aniqlandi. Bunday metodlar talabalarning bilim olishdagi faolligini oshiradi, ularda mustaqil fikrlash va o'z ustida ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi ^[7].

Shunday qilib, tadqiqot natijalari o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi kasbiy kompetentlik tizimining markaziy va integrativ elementi ekanligini ko'rsatdi. Ushbu kompetensiyaning rivojlanishi mutaxassisning kasbiy faoliyatga tayyorgarligi, kasbiy moslashuvchanligi va raqobatbardoshligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Shu sababli oliy ta'lim tizimida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi zamonaviy mutaxassis kasbiy kompetentligining ajralmas va integrativ tarkibiy qismi ekanligini tasdiqladi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, mazkur kompetensiya mutaxassisning mustaqil ta'lim olish, o'z bilim va ko'nikmalarini muntazam yangilab borish, kasbiy faoliyatini tahlil qilish hamda o'zgaruvchan mehnat bozori talablariga moslasha olish qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi kasbiy bilim, kommunikativ, axborot-kommunikatsion va ijtimoiy kompetensiyalar bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning samarali rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot davomida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasining motivatsion, kognitiv, refleksiv va faoliyat komponentlaridan iborat tuzilmasi aniqlashtirildi. Mazkur komponentlarning o'zaro uyg'unligi mutaxassisning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlash, innovatsion faoliyatga tayyorligini oshirish hamda kasbiy raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qilishi asoslandi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlariga o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirishga yo'naltirilgan maxsus topshiriq va faoliyatlarni tizimli ravishda kiritish;
- mustaqil ta'lim, loyiha faoliyati, muammoli ta'lim va refleksiv tahlil metodlaridan keng foydalanish orqali talabalarning o'z ustida ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish;
- raqamli ta'lim platformalari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish asosida uzluksiz kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirish;
- talabalarda o'z faoliyatini baholash, rivojlanish maqsadlarini belgilash va shaxsiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratish;
- pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish dasturlarida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasini baholash mezonlari hamda uni rivojlantirish metodikalarini takomillashtirish.

Mazkur takliflarni amaliyotga joriy etish oliy ta'lim tizimida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularning innovatsion faoliyatga tayyorligini oshirish hamda zamonaviy mehnat bozori talablariga mos, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash samaradorligini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.
3. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari. - Toshkent: Fan, 2007. - 315 b.
4. Tolipov U.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. - Toshkent: Fan, 2006. - 260 b.
5. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. - Toshkent: Sano-standart, 2017. - 416 b.
6. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Toshkent: Moliya, 2003. - 172 b.
7. Mavlonova R., To'rayeva O., Xoliqberdiyev K. Pedagogika. - Toshkent: O'qituvchi, 2010. - 512 b.
8. Hasanboyeva O., To'raqulov X., Haydarov M. Pedagogika fanidan izohli lug'at. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2008. - 480 b.
9. Jo'rayev R.H., Turg'unov S.T. Ta'lim menejmenti. - Toshkent: Voris-Nashriyot, 2006. - 264 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.